

**Abdullayeva Muhayyo Muhibillaxonovna**

**Annotatsiya:** *Ushbu metodik tavsiyalar dars davomida foydalanish uchun juda qulay, samarali texnologiyalar bo'lib o'quvchilarni tarix fanlarini oddiy yodlab olish emas balki, keng tafakkur qilib, mazmun mohiyatini tushunishda, qiziqishini ortirishda, o'z ustida ishlashda undovchi harakatli, o'z darslarimda doimo keng foydalanib keladigan metodlardir.*

**Kalit so'zlar:** *pedagogik texnologiya, innovatsiya*

*Ilm-saodat kaliti, Ilmsizlik-jaholatdir  
(Imom Buxoriy)  
“Jome' as-sahih” asaridan*

O'zbekiston milliy davlat mustaqilligini qo'lga kiritgandan keyin ta'lim davlat siyosatining ustuvor sohasiga aylanib, ushbu sohada tub islohotlar amalga oshirila boshlandi. O'zbekiston tarixini o'rganish bu boradagi markaziy sohani egallaydi. Bugun biz tarixiy bir davrda – xalqimiz o'z oldiga ezgu va ulug' maqsadlar qo'yib, tinchoyosiyatda hayot kechirayotgan, avvalambor o'z kuch va imkoniyatlariga tayanib, demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish yo'lida ulkan natijalarni qo'lga kiritayotgan bir zamonda yashamoqdamiz.

O'z avlod-ajdodi kimligini, nasl-nasabi, o'zi tug'ilib, voyaga yetgan vatani tarixini bilishga intilish va jamiyatda bo'layotgan jarayonlarga qiziqish, unga dahldorlik tuyg'usini har bir sog'lom fikrli insonga xos fazilatdir. Shuning uchun ham o'zlikni anglash, avvalo, tarixni bilishdan boshlanadi. Tarixiy xotirasi bor inson–irodali inson, haqqoniy tarixni bilmasdan turib esa, kelajakni yaratib bo'lmaydi. Shu ma'noda tarix fani o'zining oldiga quyidagi maqsadlarni qo'yadi:

-o'quvchilarda tarixiy ong va tarixiy tafakkurni shakllantirish, dunyo xalqlari hamda ko'p millatli xalqimizning tarixi va bugungi kuniga, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga hurmat hissini tarbiyalash;

-o'quvchilarga davlatchiligimiz tarixi jahon sivilizatsiyasining ajralmas qismi ekanligini anglatish;

-o'quvchilarda tayanch va tarix faniga oid umumiy kompetensiyalarni shakllantirishdan iboratdir.

Tarix fanini o'qitish esa, quyidagi vazifalar orqali amalga oshiriladi:

-ajdodlarimizning ma'naviy merosi va jasoratlaridan ibrat olishga, ularga munosib voris bo'lishga o'rgatish;

-o'quvchilarni tarixiy voqealarni idrok etishga yo'naltirish orqali ularning o'zligini anglash, shaxs sifatida kamol topishiga yordam beradigan tushunchalar, milliy, umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashdan iborat.

Mamlakatimiz taraqqiyoti va kelajagi ta'lim-tarbiya sohasidagi sifat o'zgarishlari va yuqori samaradorlikka, ularning jahon ta'lim talablari bilan mosligi va amaliy jihatdagi o'rnini qay darajada topayotganligiga bog'liq. Ta'lim-tarbiyadagi sifat o'zgarishlari va yuqori samaradorligi esa mazkur soha bo'yicha ijobiy yangilik kiritish bilan belgilanadi. Bunday yangiliklarni kiritish jarayoni innovatsion jarayon bo'lib, u ilg'or pedagogik texnologiyani joriy qilib, ta'limda sifat va samaradorlikka erishishdan iborat bo'ladi, chunki ta'limda innovatsion uslublarni qo'llash ijobiy sifat o'zgarishlarni va yuqori samaradorlikka erishishni ta'minlaydi. Buning uchun har bir o'qituvchi yangicha fikrlashi, tafakkurini o'stirish, pedagogik texnologiyalarni o'rganishi, uning maqsad va vazifalari nimalardan iborat ekanligini chuqur bilib olish kerak. Innovatsion ta'lim texnologiyalarini pedagogik amaliyotga tatbiq etish uchun o'qituvchiga quyidagi komponentlar-bilim, ko'nikma va malakalar zarur bo'ladi:

- O'z fanining asoslarini chuqur egallagan, ilmiy salohiyat va ma'naviy barkamollikka ega bo'lishi;
- O'z fanining ilg'or targ'ibotchisi, fidoiysi bo'lishi;
- Ilg'or pedagogik tajribani o'rganish va umumlashirish, o'zlari ham yangicha o'qitish uslublarini ishlab chiqishi;
- O'quv jarayonini tashkil etishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalardan keng foydalanish;
- Ta'lim texnologiyalari va ularning rivojlanish tarixi haqida tushunchalarga ega bo'lish;
- Zamonaviy, ilmiy va madaniy taraqqiyotning mohiyatini tushuna bilishi;
- Internet tarmog'i to'g'risida tushunchaga ega bo'lishi va undan o'z bilimini oshirishda foydalana olishi;
- Axborot ta'lim texnologiyalarini va o'qitish vositalarini ta'lim berishda tatbiq etishi;
- Innovatsion ta'lim texnologiyalarining turlari, qoidalari va tamoyillari haqida tushunchaga ega bo'lishi;
- O'quvchilarning faolligini o'stirish, ularning mustaqil ta'lim olish jarayonlarini o'rganish, o'qitish jarayonini mazmunli, qiziqarli, ijodiy, samarali bo'lishi uchun ta'limning interfaol metodlarini qo'llay bilish;
- O'quv jarayonining motiv komponentini ro'yobga chiqarish maqsadida fanning mazmuniga qo'shimcha ravishda axborot manbalari, muammoli topshiriqlar, o'quv loyihalarini kiritish;
- O'z bilim va malakasini takomillashtirish, fan-texnika yangiliklarini puxta egallash;
- O'quvchilarning o'zlashtirish darajasini aniqlash va ularning monitoringini olib borish;
- Yosh o'qituvchilarga interfaol o'qitish usullarini namunaviy ochiq darslarda namoyon qilish;

Darhaqiqat, pedagogik faoliyatda innovatsion yondashuv asosida o'quvchilarni darsga jalb qilish, mavzu yuzasidan tasavvurlarni hosil qilish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda didaktik o'yinlar, topqirlik mashqlaridan foydalanishning roli katta. Dars jarayonida o'quvchilarni darsga jalb qilish, qiziqтира olish, tasavvur hosil qilish, ularni faollikka, izlanishga undash, mavzu yuzasidan bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishda didaktik o'yinlar, topqirlik mashqlari, interfaol usullardan foydalanish ta'limda muhim ahamiyat kasb etadi. Didaktik o'yinlarni o'tkazishdan asosiy maqsad o'quvchida tabiiy erkinlik his etishni, o'z guruhida va undan tashqarida o'zaro munosabat va aloqa o'rnata olishni shakllantirishdir. Shulardan o'z tajribamda sinalgan quyidagi topqirlik mashqlarini ko'rib chiqamiz:

Birinchi metodimiz Zapusk texnologiyasi haqida bo'ladi. Ushbu metod orqali biz sinfda aktiv va motavasion muhitni osonlik bilan yarata olamiz. Ushbu metod orqali siz dars muhitini o'zingiz istagan atmosferada olib bora olasiz. Bu metodning yana bir muhim jihatishundaki, o'quvchilarni boshqarish ham siz uchun yanada osonlashadi. Darsga kirdingiz va o'quvchilarga bugungi mavzuga aloqador jumboqli savol bering. Bu savol shunchalik qiziq bo'lsinki o'quvchilar ushbu jumboqni javobini bilishga oshiqsin.

Masalan Xorazmshoxlar davlati bilan tanishayotganimizda Chingizxon bosqinlari arafasida qo'shimcha badiiy adabiyotdan foydalanib, Chingiz Aytmatovning "Asrga totigulik kun" romanidagi "Chingizxonning oq buluti" qissasida yozilishicha, Chingizxon Xitoyga yurishi oldidan hech bir kimsa oila qurmasligi uchun farmon beradi. Lekin qo'shin tarkibidagi bir qiz va yuzboshi bo'lgan yigit yashirincha oila qurishadi. Odatda Chingizxon askarlari tarkibida ayollardan tashkil topgan qo'shin turi ham bor edi. Xitoy yurushining boshlanishi arafasi tunida askarlarni va qo'shinni ko'zdan kechirayotgan Chingizxonga chaqaloq yig'isini eshitib qoladi. Va bu farmonga bo'ysunmagan ayolni o'ldirishga buyuradi. Ayol faqat o'zi aybdorligini aytsada, qiynoqqa solinayotgan ayolini azoblariga chidolmagan yuzboshi ham o'z jonidan kechib, aybini tan oladi. Murg'ak chaqaloq ota-onasiz yetim qoladi. Chingizxonni o'zidan boshqa ko'ra olmaydigan Alloh tomonidan in'om etilgan, u bilan birga doimo birga suzib yuradigan falakda oq buluti bo'lar edi. U oq bulut bilan birga doimo g'alabaga erishardi. Shunda bulut orqaga ketayotganini ko'rgan Chingizxon qo'shinni to'xtatishni buyuradi. Oq bulut borib chaqaloqni ko'tarib turgan qari qiz ayolni boshida to'xtaydi. Shu vaziyatda o'quvchilarga savol beramiz. Oq borgan qizning taqdiri nima bo'lishi mumkin? O'quvchilar har xil variantlar aytishlari mumkin. Lekin siz savolni javobi yangi mavzu ichida yashringan deya mavzuni yakunida notiqlik san'atizni ishga solib, to'g'ri javobni ya'ni, Alloh och qolgan bola va shahid ketgan ota-onasi faryodlari yetib, chaqaloqqa mehribonlik bilan bag'riga olgan onani ko'ksiga ona suti bilan ne'matlantiradi.




Bu metod orqali o'quvchilarni ham o'ziga jalb qila olish, mavzudagi kalt so'zni toppish uchun bor focus, diqqatini sizga qaratishlarini, qo'shimcha adabiyotlar bilan shug'ullanishlariga erishasiz.


Ikkinchi texnologiya bu **Kaizen metodi**. O'quvchilaringiz uchun ajoyib bo'lgan bu metodni o'rgating. Ushbu metod orqali o'quvchilarda ijobiy o'zgarishlarga osonlik bilan erishasiz. Quyida ushbu metodni ko'rib chiqamiz va samaraga erishishingiz mumkin.

Ikkinchi jahon urushidan keyin Yaponiyaning taraqqiyot yo'li sifatida ishlab chiqilgan KAIZEN (continuous improvement) falsafasi bugungi kunga kelib, barcha sohalarda qolaversa shaxsiy rivojlanish uchun ham foydalanib kelinmoqda. Kaizen metodining eng asosiy ma'nosi barcha o'quvchilarni jalb qila olgan holda o'quvchilarga katta vazifalar emas, ayniqsa past o'zlashtiruvchi o'quvchilarga oson va tez o'rganishga qulay bo'lgan 2-3 ta tarixiy atamani yod olib kelishni, yoki xronologiya bilan bog'liq birgina ma'lumot bo'lsa ham to'g'ri javob bera olganiga, brogan sari faollashib borayotganini aytib qo'shimcha 1-2 tadan vazifalar qo'shib borish orqali maqsadga erishamiz. Metodlarga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritib ozimizniki qilib olish har bir pedagogning kreativlik qobilyatiga bog'liq. Masalan, tarix fanida xronologik vaqtlarni eslab qolishda biror shu yildagi qo'shimcha vaqtlarni ham bog'lab organish yoki yuz yildan keyin yoki oldin bo'lgan voqealarni ham qo'shib o'rgatish, o'quvchilarni aqliy faoliyatlarini charxlaydi va dars tayyorlayotgan paytida

o'zbekiston tarixi bilan jahon tarixi kitoblarini solishtirib oson o'rganishga, tafakkuri rivojlanishiga erishiladi. Masalan:



-darsda qo'llash uchun qiziqarli metodimiz **“Buturburod”** deb nomlangan. Barcha sinf va fanlarga moslab qo'llasa bo'ladi. O'quvchilarni tezkorlikka 2-3 daqiqa vaqt berib, qo'llaymiz. Bu metodni dars oxirida qo'llash samarali va xulosali bo'ladi. Bunda o'quvchilar bilimlarni qanchalik egallaganlarini aniqlab olish oson kechadi. Masalan: 8-sinf jahon tarixida: G'arbiy Yevropada yangi davr madaniyati mavzusi bo'yicha



Gumanist-humanist- insoniy ma’nosini bildiradi
Gumanizm XIV asr o’rtalarida Italiyada paydo bo’ldi
Angliyada qirolning 1-vaziri bo’lgan Tomas Mor “Utopiya” asari haqida

Shekspir, Migel de Servants, Leneardo da Vinchi haqida yangiliklar
Rafael Santi “Sikstin madonnasi”, Rembrandt “Adashgan o’g’ilning qaytishi”
Mikelanjelo “David ” haykali, Nikolay Kopernik, G.Galiley, Isaak Nyuton, Jon Lok falsafani rivojiga xissasi

Renessans- Uyg’onish
R Buyuk geografik kashfiyotlarni yangi ilmlardagi kashfiyotlarga sabab bo’lishi
Rivojlanga o’rta asrlar Yevropa madaniyati namoyodalari ijodlari haqidagi kinolar haqida

Tarix darslarida turli metod va texnologiyalarni qo’llashdan maqsad:

O’quvchilarga ajdodlarimiz o’tmishi haqida, vatanimiz tarixi va unda ro’y bergan voqea va hodisalarni to’la-to’kis xolis yondashuv bilan tushuntirish;

- O’quvchilar tarbiyasida o’zlikni anglash, milliy iftihorni tiklash;
- O’quvchilarning fikrlash qobiliyati dunyoqarashi va tafakkurini o’stirish;
- Tarix fani yuzasidan amaliy va nazariy ko`nikmalar hosil qilish;
- O’quvchilarning intellektual salohiyatini oshirish;

Topshiriqlarni bajarish jarayonida o’quvchilar o’zlashtirgan bilimlari asosida kuzatish, solishtirish, tahlil etish, umumlashtirish, xulosa chiqarish kabi aqliy faoliyatlarni bajaradilar. Bunday topshiriqlar o’quvchilarda innovatsion g’oyalarni egallashga ko’maklashadi. Darslarda tarixiy manbalar bilan ishlash bo’yicha topshiriqlar nazariy yoki amaliy tarzda bo’ladi. Darsda hosil qilinadigan muammoli vaziyat hamda o’quvchilar bajarishi lozim bo’lgan muammoga qo’yiladigan eng asosiy talab-topshiriqlar o’quvchi qiziqishini oshiradigan, eng kamida o’quvchida qiziqish hosil qiladigan bo’lishi kerakligidan iborat. Topshiriqlar o’quvchilarning bilish faoliyatini tezlashtiradigan, topqirlik qobiliyatini oshiradigan, evristik xususiyatga ega bo’lishi talab etiladi. O’qituvchi, eng avvalo, o’quvchilarning bilim darajasi va intellektual imkoniyatlarini hisobga olishi darkor. Sababi bugun o’sib kelayotgan yosh avlod shunday bilim, tafakkur sohibi bo’lishi kerakki, ertaga u qo’rqmay Vatan yukini o’z zimmasiga ola bilsin va yurt uchun nimadir qila olishini isbotlasin.

Xulosa qilib aytganda, o’quvchi yoshlarni avvalo, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash uchun dars jarayonida butun rahbarlikni o’z qo’liga olib, mavzu mohiyatini to’liq tushuntirgan o’qituvchi emas, balki o’quvchilariga ishlash uchun sharoit va

erkinlik yaratishga erishgan, ularni mustaqil fikrlashga o'rgatgan o'qituvchigina chin ma'nodagi pedagog va tarbiyachidir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kunning 25 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasidan.-T.: 2017
2. Sh. Mirziyoyev "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz". T. 2016
3. I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" T.:2008
4. O'zbekiston Respublikasi Davlat Ta'lim Standartlari . T.: 2017
5. R. Mavlonova, O. To'rayeva "Pedagogika". T.: 2001
6. R. M. Sobirova "O'quvchi ijodiy faoliyatini faollashtirish nazariyasi va amaliyoti". T.: 2013
7. R.Ishmuhammedov, M.Yuldashev "Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar"-T.:2017
8. Q.Usmonov, M.Sodiqov, S.Burxonova "O'zbekiston tarixi"-T.:2006